



The Rich



Italiyalik moda dizayneri Jiorjio Armani o'zining erkak liboslari bilan dunyoda mashhur bo'lib, ARMANI kompaniyasining yuksalishiga o'zining toza va xushbichim mahsulotlari bilan musharraf bo'lgan. Jiorjio o'zining ARMANI kompaniyasiga 1975 yilda asos solgan bo'lib, 2001 yilgacha Italiyadan chiqqan eng muvaffaqiyatli dizayner sifatida tan olib kelingan. Uning

kompaniyasi yiliga \$2 mlrd. atrofida savdo aylanmasini amalga oshirsa, o'zining shaxsiy davlati salkam \$5 mlrd.ni tashkil qiladi.

Jiorjio Armani

(Giorgio Armani) 11 iyul 1934 yilda (1934-07-11) Italiyaning Emiliya-Romanya provintsiyasidagi Pyachentsa shaxrida Tug'ilgan Millati Italyan

Mahsulot Yorliqlari

Giorgio Armani S.p.A., Armani Collezioni, Emporio Armani, Armani Jeans, Armani Exchange, Armani Junior, Armani Casa.

Mukofotlari

1983 yilda Amerika libos dizaynerlari kengashi xalqaro mukofoti (CFDA International Award) Ota-onasi: Ugo Armani va Mariya Raymondi Yoshlik yillari Armani Italiya shimolidagi Pyachentsa shaxrida tug'ildi va o'sha erda uch farzandning biri bo'lib voyaga etdi. Uning otasi Ugo transport kompaniyasida ijrochi direktor, onasi Mariya esa uy bekasi edi. ◆A. J. Kroninning ◆Qal'a◆ (The Citadel) asarini o'qib chiqqan yosh Armani tibbiyotda o'z hunarini shakllantirishga intiladi va Boloniya Universitetiga o'qishga kiradi◆-deb yozadi u haqda Simon Hils ◆Tayms◆ jurnalida.

Ikki yillik oliy ta'limdan so'ng 1953 yilda Armani harbiy xizmatga chaqiriladi va u erda harbiy gospital ishlariga ham safarbar qilinadi. Tajribadan ayon bo'lishicha, doktorlik kasbi unga chiqarilmagan edi. Dizaynerlik kasbiy faoliyati Harbiy xizmatdagi qisqa tajribadan so'ng Armani Milandagi La Rinasente universal do'konida vitrina yasatuvchi xodim lavozimini egallaydi. Keyinroq erkak liboslari bo'limiga ta'minotchi bo'lib o'tadi va shu lavozimida moda sanoatining marketing sohasida qimmatli tajribaga erishadi.

1960 yillarning o'rtalarida Armani Nino Cheruti (Nino Cerruti) kompaniyasiga o'tib, erkak liboslariga dizayn yarata boshlaydi. Uning malakasiga xaridorlar ko'p edi. Keyingi o'n yillikda, Cheruti kompaniyasida ishlashda davom etib, Armani bir vaqtning o'zida o'nlab kompaniyalarning dizaynlariga o'z hissasini qo'shdi.

1960 yillarning oxirida Armani me'moriy chizmachisi Serjio Galeoti bilan tanishadi va bu shaxsiy-professional munosabat ko'p yillar davom etadi. 1973 yilda Galeoti uni Milandagi 37 corso Venezia manzilida ofis ochishga ko'ndiradi. Bu narsa uni keng miqyosdagi hamkorlik davriga olib kirdi va Armani ko'p sonli moda uylari, shu jumladan Allegri, Bagutta, Hilton, Sicons, Gibò, Montedoro, and Tendresse uchun erkin dizayner bo'lib ishladi.

Florentsiyadagi Pitti Palas (Pitti Palace) ning Bianka zalida uyushtirilgan ko'rgazma va namoyishlarni kuzatib borgan xalqaro matbuot tez orada Armanining ahamiyatini

e'tirof eta boshlashdi. Bu tajriba Armaniga o'z uslubini yangicha yo'llar bilan shakllantirish imkoniyatini taqdim etdi. Endi u kuch-quvvatini o'zining yorlig'iga bag'ishlashga tayyor bo'lgandi. Shunday qilib, 1975 yilda u do'sti Galeoti bilan Milanda Giorgio Armani Spa kompaniyasiga asos soldi. O'sha yilning oktyabrida u 1976 yilning bahor va yoz fasli uchun erkaklar tayyor kiyimi kolleksiyasini birinchi bor o'z nomi ostida namoyish qildi. U o'sha fasl uchun ayollar kiyimini ham yo'lga qo'ydi.

1978 yilda Gruppo Finanzario Tessile (GFT) bilan shartnoma tuzib, Armani sanoat bilan innovatsion munosabat o'rnatdi va bu bitim hashamdor tayyor kiyimlarni industrial muhitda kompaniya dizaynerining sinchkov nazorati ostida tayyorlash imkonini berdi.

1979 yilda, Giorgio Armani Corporation ga asos solganidan keyin, Armani AQShga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni boshladi hamda ayollar va erkaklar uchun Mani liniyasini ishga tushirdi. G. A. Le Collezioni, Giorgio Armani Underwear and Swimwear (Ichki va suzish kiyimlari), va Giorgio Armani Accessories (Aksessuarlar) singari bir necha yangi mahsulot liniyalarini joriy qilish bilan bu yorliq xalqaro modaning etakchi nomlaridan biriga aylandi.

1980 yilda kompaniya L'Oréal bilan atir-upa yaratishga doir muhim shartnomani imzoladi va Armani Junior, Armani Jeans va Emporio Armani liniyalarini ishga tushirib, uning ketidan 1982 yilda Emporio Underwear, Swimwear, and Accessories dizaynlarini joriy qildi. Emporio liniyasi uchun Milanda yangi do'kon ochilib, uning ketidan birinchi Giorgio Armani butiki qad ko'tardi. Armanining mijozlarga g'amxo'rliqi sifati oliy uslubga monand va ayni paytda arzonroq narxdagi yoshlarbob mahsulotni shakllantirish bilan o'zining avj nuqtasiga ko'tarildi.

Emporio liniyasi demokratik ruh kasb etgani bois, Armani reklamani yangicha noan'anaviy usullaridan foydalanish lozimligini his qildi. Oynayi jaxon lavhalari va ulkan ko'cha reklamalari, mijozlar, jumladan Armani Burgutiga sodiq kiyinuvchilarga jo'natiladigan uy jurnallari shularga misol bo'lardi. Tashviqot

sababidan va ijodkorlikni rag'batlantirish uchun Armani kinoteatr bilan munosabatlar zarur ekanligini payqadi.

U 1980 yilda namoyish qilingan ◆Amerikalik jigalo◆ (American Gigolo) kriminal melodramasi uchun liboslar yaratdiki, buning muvaffaqiyati kino olami bilan uzoq muddatli hamkorlikka olib keldi. Armani yuzdan ortiq filmlar uchun liboslar yaratdi va 1987 yilgi ◆Qo'l etmas bosmachilar◆ (The Untouchables) filmi eng muhim bitimlardan biriga aylandi.

1983 yilda dizayner GFT bilan shartnomasiga tuzatish kiritdi. Ular AQShga qaratilgan Mani liniyasini va yuqori sifatli tayyor kiyimlar liniyasini kompaniyaning bosh qarorgohi manzili nomi bilan qayta yorliqlab, Borgonuovo 21 belgisi ostida ishlab chiqara boshlashdi. 1980 yillarning yakunida, Galeotining vafotiga (1985) qaramay, Armani tijorat ufqlari va litsenziya shartnomalarini kengaytirishda davom etdi. U Armani Japan (Armani-Yaponiya) tarmog'ini ochdi va ko'zoynak (1988), paypoq (1987), sovg'alar kolleksiyasi (1989) liniyalarini hamda Amerika uchun yangicha ayol va erkak kiyim-kechak liniyasini A/X Armani Exchange (1991) nomi bilan ishga tushirdi.

1990 yillardagi shiddatli kengayishlardan so'ng (sport kiyimlari, soatlar, ko'zoynaklar, upa-elik, uy jixozlari va yangi butlovchi kolleksiyalar), 2000 yil, ya'ni brendning 25-yubileyi, investitsion faoliyatga boy bo'ldi. Bunga qimmatli qog'ozlar sotuvini hamda Armani tomonidan o'z mahsulotlarining sifati va taqsimoti nazoratini kuchaytirishga qaratilgan yangi ishlab chiqarish quvvatining qo'lga kiritilishini misol qilish mumkin.

Armanining erkak va ayollar uchun chang'i liboslari va kundalik kiyimlari liniyasi 1995 yilda ishlab chiqildi. 1991 yildagi loyiha, A/X: Armani Exchange, tashlanib turuvchi nafis liboslarga arzon narxlarni taklif etdi va Armanining Amerika ommaviy bozoriga yorib kirishga urinishini namoyon qildi. 1998 yilda Xitoydagi birinchi do'konini ochib, bu mamlakatning bozorini xam kezishga tayyorlandi. Pekindagi kichkina do'kon ketidan 2004 yilda Shanxayda etakchi do'kon ish boshladi. 2000 yilda Giorgio Armani SpA yangi kosmetika va uy jixozlari liniyasini

joriy qilib, o'zining aksessuarlar tarmog'ini kengaytirdi. Shu paytning o'zida Guggenxaym Muzeyi Nyu Yorkda tirik dizayner uchun birinchi bor uning asarlari ko'rgazmasiga mezbonlik qildi. Haftasiga o'rtacha 29 000 kishiga xizmat ko'rsatgan shouda Armani ayollar uchun oqshom liboslarini ko'z-ko'z qildi, vaholangki bu dizaynerning kuchli sohalaridan biri bo'lishiga qaramay, uning asosiy manfaatini ifoda qilmasdi.

2008 yilda Armani buqajangchilari uchun libos yaratib, **◆Goyesco◆** deb atadi va uni ispan sportchisi Kayetano Rivera Ordonyes Ispaniyaning Ronda shaxrida bo'lib o'tgan tomoshada kiyib chiqdi. Ular shuningdek bir qancha moda shoularida va boshqa tadbirlarda hamkorlik qilishdi.

2009 yil hisobiga ko'ra Armani dunyoning 37 dan ortiq mamlakati bo'ylab yoyilgan 60 ta Giorgio Armani butiklari, 11 ta Collezioni, 122 ta Emporio Armani, 94 ta A/X Armani exchange, 13 ta Armani Junior, and 1 ta Giorgio Armani Accessori do'konlaridan iborat tarmoqqa egalik qilgan.

Kiritgan yangiliklari

Model Ana Karolina Reston anoreksiya xastaligi ta'sirida o'zini ochlikka mahkum qilib o'linga yuz tutgach, Armani dizaynerlardan birinchi bo'lib tana massasi indeksi 18 dan quyi bo'lgan modellarni rad etdi. 2007 yil 24 yanvarda oliy moda olamida birinchi hodisa qilib, Armani o'z kolleksiyasini internet orqali jonli ravishda efirga uzatdi. Armani Prive Bahor/Yoz

2007 moda namoyishi MSN va Cingular uyali telefonlari yordamida translyatsiya qilindi.

LG kompaniyasi Prada bilan guruhlashib LG Prada telefonini taqdim qilgach, Samsung ham Armani bilan birlashib Giorgio Armani telefonini yaratdi. Kristian Balening **◆Qora ritsar◆** (The Dark Knight) filmidagi qahramoni Bryus Ueyn uchun Armani buyurtma asosida kostyum-shimlar tayyorlab berdi. 2008 yilda ommagahavola qilingan **◆Bryus Ueyn uchun Jiorjio Armani◆** shiori ostidagi

reklamalarda Kristian Bale Armanining kostyum-shimlarini kiyib tushdi. Biroq keyinchalik Bale Gentlemen's Quarterly jurnaliga bergan intervyusida bu tashviqotlar uning iznisiz amalga oshirilganini ta'kidlagan. Sport sohasidagi ishlari Jiorjio Armani sportga juda ishtiyoqmand.

U Olimpia Milano basketbol jamoasining prezidenti va Angliya milliy futbol jamoasi uchun ikki bora kostyum-shim tayyorlab bergan. Shundan so'ng, 2007 yil avgustidan buyon Londonning Chelsi klubi o'yinchilari kiyib yurishi uchun kostyum-shimlar tayyorlab keladi. Turinda bo'lib o'tgan 2006 yilgi Qishki Olimpiadaning ochilish marosimida bayroqdorlik qilgan italiyaliklarning liboslarini ham aynan u yaratgan. Armani, shuningdek, YeA7 brendlar to'plamini ham joriyqildi va unda AS Milan guruhida o'sha paytda to'p surgan ukrainalik futbolchi Andrey Shevchenkodan ilhomlanib, u kiyib olgan 7 raqamli jersidan namuna oldi.

Chelsi futbol klubi o'zining Stemford Bridjdagi Direktorlar kabinetiga yangicha tus berishni Armaniga topshirishdi. ❖Armani oromxonasi❖ (Armani Lounge) deb atalgan ovqatlanish va orom olish xonalari majmui Chelsi direktorlar kengashining match kunlaridagi uchrashuvlarida va nozik mehmonlarni shodlantirishda xizmat ko'rsatadi. ❖Armani oromxonasi❖ 200 m2 maydonni egalladi va uning uchun Jiorjio Armani o'zining Armani/Casa uy interer kolleksiyasidan jihozlar tanlab, yagona kontseptsiyada shaxsan zeb berdi.

Boshqa bizneslari

Armani 1990 yillarda Armani kafelari tarmog'ini ochdi hamda Giorgio Armani Neve nomi bilan yangi xush bo'yni ishlab chiqdi va shu ondan boshlab ko'plab odekolon va xush bo'yatirlar Armani tomonidan bozorga surildi.

Armani AQShda birinchi restoranini Armani/Ristorante nomi bilan ochdi. Mazkur restoran Nyu Yorkda 2009 yilning fevralida ishga tushdi va Zagat Survey so'rovlarida reytingi chiqarildi.

Uning italiyalik ovoz dizayneri Mateo Chekarini bilan birgalikda tuzgan Emporio Armani CD to'plami eng bozori chaqqonlar safidan joy oldi.

U o'z brendini Armani Casa (asl toifa uy jixozlari — 16 nafar do'kon), Armani-branded Dolci (qandolat) va Armani-branded Fiori (gullar) singari turfa toifalarga kengaytirdi.

Manba: <http://goo.gl/zwD7Wn>